

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR RUBOIYLARI

Esanova Sabrina Zavqiddin qizi

Buxoro davlat universiteti talabasi

Filologiya fakulteti 4- bosqich talabasi

Annotatsiya: *maqolada shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning ruboiylari tahlil qilinadi.*

Kalit soʻzlar: *ruboiy, tahlil, lirika, radif, qofiya, janr, ijodkor, memuar, konsepsiya, doston, badiiy, realistik tasvir, tilshunos.*

Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk Boburiylar sulolasi asoschisi, shoir, davlat arbobi, tilshunos, faqih, mantiq va riyoziyot ilimlaridan puxta xabardor boʻlgan jamoat arbobi sifatida tarixda qolgan. Bu haqda Oybekning fikrlari quyidagi fikrlari mavjud: “Bobur Mirzo hayotining oʻz davri, oʻz muhiti bilan uzviy, teran, realistik tasvirda, epik koʻlamda badiiyatga koʻchira oldi. Bobur Mirzo siyomosida, uning fitratida asrlar osha bizning zamonlarni ham nurlantirib turgan jihatlarni old planga qoʻyib, Bobur Mirzo dahosining mangulikka daxldorligini dostonning badiiy konsepsiyasiga singdirib yubordi". Hqiqatdan ham, Bobur oʻzining tengsiz memuar asari “Boburnoma” orqali bizni oʻz zamonasining ilmiy va maʼrifiy, madaniy, adabiy muhitidan xabardor qiladi.

Bobur lirikasida mavzular olami rang-barang. Shoirning nazm namunalarida Ona vatan sogʻinchi, ayriliq, gʻam-tashvish kabi kechinmalar aks ettiriladi. Bundan tashqari Bobur sheʼriyatida ishq-muhabbat ham tarannum etiladi:

Ishqingda koʻngul xarobdur, men ne qilay?

Hajringda koʻzum purobdur, men ne qilay?

Jismim aro pech-u tobdur, men ne qilay?

Jonimda koʻp iztirobdur, men ne qilay?.

Ruboiyning birinchi misrasida yor ishqida oshiqning kóngli xaroblighi yor hajrida oshiq kózlari purob, yaʼni yoshga tólalighi, bu dardga davó bólmish yori yóqlighidan nima ish qilishini bilmay qolganlighi tasvirlanadi. Ruboiyda “xarobdur”, “purobdur”, “tobdir”, “iztirobdur” sózlari qofiyadosh soʻzlardir. „Men ne qilay?“ jumlasí esa yoyiq radif sanaladi. Ushbu ruboiy turlaridan taronayi ruboiydir.

Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanida Boburning Mohimbegimga bólgan ilk muhabbat uchqunlari tasviri keltiriladi: “Otlar yurib bormoqda edi. Bobur Mohim deb atalgan qizning tobora uzoqda qolayotganini



o‘ylab, ko‘nglida kuchli bir armon sezdi. Yigirma kun Hirotda yurib, bu qizni nega faqat endi, jo‘nab ketayotgan paytda ko‘rdi. Bobur hali ham qo‘lida ushlab borayotgan gulga qaradi. Boyagi go‘zal qiz Hirotning butun nafosatini o‘z jozibasi bilan birga mana shu gulga muattar hid kabi joylab berganga o‘xshar edi. Bobur gulni yana bir hidladi-da, boshidagi sallasining qatiga ko‘zga uncha tashlanmaydigan qilib qistirib qo‘ydi...". Boburning quyidagi ruboiysida ham uning Mohimbegimga bo‘lgan sof muhabbati tasvirlanadi:

Sen gulsen-u, men haqir bulbuldurmen,
Sen shu'lasen-u, ul shu'lag'a men kuldurmen.

Keltirilgan iqtibosda yor gulga o‘xshatilib, tashxis san'ati yuzaga kelgan. Go‘zal guldek yorning oshig'i qadrsiz bulbul ekanligi, yorni shu'laga o‘xshatish orqali ma'shuqni yor ishqida yonganligi, oshiqni kulga o‘xshatib, tashbeh san'atining ajoyib namunasi yaratilgan.

Nisbat yo‘qtur deb ijtinob aylamakim,
Shahmen elga, vale sanga quldurmen.

Nisbati, tengi yo‘q deb o‘ylama, men elga shoh bo‘lsam ham senga quldurman, deya shoir o‘zini ta'riflaydi.

Ruboiy a-a-b-a tarzida qofiyangan bo‘lib, “bulbuldurmen”, “kuldurmen”, “quldurmen”, so‘zlariqofiyadosh so‘zlardir. “l” tirgak tovushi-raviy sanaladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur mohir ruboiynavislardan biridir. Oybek bu fikrni quydagicha tasdiqlaydi: “Bobur ruboiylari uning poeziyasining cho‘qqisidir. Boburdan oldingi va keyingi shoirlar bu borada unga yeta olmaganlar. Umar Xayyom ruboiylari kabi uning ruboiylari ham falsafiy fikrlarga boy, shaklan mukammal.”,- deya ta'riflaydi. Darhaqiqat, Bobur lirikasi o‘zining betakrorligi bilan ajralib turadi. Undagi har bir baytni o‘qiganimizda buning guvohi bo‘lishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R.Vohidov. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. -Toshkent. 2006.
2. Bobur. Boburnoma. -Toshkent.2007.
3. X. Davron. Mirzo Boburning ikki ruboiysi sharhi.-Toshkent.2006.
4. Oybek. MAT. 19 tomlik 18-tom. -Toshkent.1981.
5. P.Qodirov. Yuduzli tunlar. -Toshkent. 2009.
6. Sodikova D. MUSLIHABEGIM MISKIN IS A ZULLISONAYN (WHO WROTE HER WORKS IN TWO LANGUAGES) POETESS //Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 81-86.



7. Садиқова Д. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste’dodli zullisonayn shoirasi //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

8. Садиқова Д. The Expression of Muslikha begim Miskin’s Autobiography in Her Own Literary Collections //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 38. – №. 38.

9. Sodikova D. MUSLIHABEGIM MISKIN IS A ZULLISONAYN (WHO WROTE HER WORKS IN TWO LANGUAGES) POETESS //Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 81-86.

10. Садиқова Д. The Expression of Muslikha begim Miskin’s Autobiography in Her Own Literary Collections //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 38. – №. 38.

11. Eshankulov H., Sadikova D. Muslihabegim Miskin is a talented bilingual poetes during the literary period of the XIXth century in Bukhara //GOLDEN SCRIPTS OLTIN BITIGLAR. – С. 41.

12. Tursunovna S. D. BUXOROLIK ZULLISONAYN SHOIRA //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2024. – Т. 2. – №. 20. – С. 170-176.

13. Sodiqova D. Muslihabegim ijodida hadislarga murojaat //CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD. – 2024. – Т. 1. – №. 4. – С. 240-249.

14. Tursunovna S. D. BUXOROLIK ZULLISONAYN SHOIRA //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2024. – Т. 2. – №. 20. – С. 170-176.

